Sog'lomlashtirish turizmida ekologik va ijtimoiy ta'sirlarning sintezi.....	832
Naimov Saidjon Yusup o'g'li	



Kasbiy ta'lim tashkilotlarida o'quvchilarni raqamli kompetensiyasini baholashning metodologik asoslari.....	835
Maxkamova Zuxra Tursunpulotovna	
Обзор по теме Современные системы управления возбуждение синхронных машин и перспективы их развития (Формирования законов управления).....	841
Алиев Абдор Мураткулович	
O'zbekistonda turizm va servis sohasida davlat- xususiy sheriklik mexanizmidan foydalanish istiqbollari.....	846
Mamayusupova Dilovarxon Begmatovna	
Tijorat banklarida operatsion risklarini baholash va boshqarish tizimini tashkil qilish	850
Jaxongir Rabbimov	
Tomorqa xo'jaliklari faoliyatini tahlil qilishda statistik modellar va metodlardan foydalanish yo'nalishlari.....	855
Turobov Sherzod Alisherovich	
Совершенствование порядка расчёта и взимания НДС в узбекистане: аналитический подход.....	860
Бисенбаев Шарьяр Куанишбай ули	
Mintaqaviy iqtisodiyotda inson kapitalini raqamli transformatsiyalash masalalari.....	864
Yusubboeva Dinora Quadrat qizi	
Iqlim o'zgarishlari va rekreatsiya turizmining kelajagi: muammolar va yechimlar	870
Shaymanova Nigora Yusupovna	
Sirdaryo viloyatining turizm imkoniyatlari va o'ziga xos turizm resurslari.....	875
Tursunova Gulmira Rabbonovna	
Samarqand viloyatida investitsion-innovatsion faollikni oshirish holati va investitsiyalarning tarkibiy xususiyatlari.....	883
Bektemirov Abdumalik Bektemirovich, Axrorov Abbos Aslamjon o'g'li	
Global innovatsion indekslar va o'zbekiston: rivojlanish yo'nalishlari va bosqichlari	889
Bekmurodova Gavhar Adham qizi	
Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvga raqamli texnologiyalarni joriy qilishning ilmiy-nazariy asoslariga qarashlar	895
Suyunov Dilmurod Xolmuradovich, Xabibullayeva Shirinxon Toxir qizi	
Xalqaro standartlar asosida moliyaviy instrumentlar hisobini va auditini takomillashtirish.....	902
Nuraliyev Behzod Baxtiyor o'g'li	
Внедрение и адаптация исламского банкинга в экономике узбекистана	906
Б.Б.Ахмаджанов, М. С.Шукруллаева, Д.Р.Сафаева	
Kichik biznesning iqtisodiy o'sishni ta'minlashdagi ahamiyatini baholash uslubiyoti.....	911
Ermatov Akmaljon Adxamovich	
"Neyromarketing" asosida o'zbekiston turizm brendi tahlili	916
Narziqulov Elbek Farxod o'g'li	
Xalqaro bozorlarda zamonaviy marketing vositalaridan foydalanish	922
Meliqulov Abduhalil Norinovich	
Tijorat banklarida muammoli kreditlar va ularning bank aktivlariga ta'siri.....	929
Saidov Bobir Jiyanboy o'g'li, Xolmuradov Musurmon Avlaqulovich	
Сущность и причины международных денежных переводов	936
Гимранова О. Б.	
Xo'jalik yurituvchi subyektlarda uzoq muddatli aktivlarning hisobi va auditini raqamli tvn texnologiyasi asosida takomillashtirish imkoniyatlari.....	941
Rizakulov Abdurauf Abdimutalibovich	
Biologik aktivlarning tushunchasi: iqtisodiy mazmuni va mohiyati.....	948
Ziyayev Dilshodjon Salimjonovich	
Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda iqtisodiy siyosatning roli: zamonaviy yondashuvlar.....	953
Xodjayev Jamshid Abduxakimovich	



Аналитический обзор: Развитие корпоративного управления в государственных корпорациях Узбекистана (2015–2025).....	958
Мамараджабов Фарход Бахтиярович	
O'zbekistonda transport infratuzilmasini rivojlantirish karidorlari	968
Nazriyev Umidjon Baxrillayevich	
Aylanma kapital bilan ishlashda samaradorlikni oshirish: korxona moliya siyosatini takomillashtirish yo'nalishlarida data science yondashuvlari	975
Khoshimov Doniyor, Kungratov Ilmurod Kuzibay o'g'li	
Davlat ulushi mavjud bo'lgan korxonalarda moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda raqamli transformatsiyaning roli	982
Musurmonov Mehroj Murtaza o'g'li	
Iqtisodiyotni raqamlashtirishda tijorat banklariga moliyaviy resurslarni jalb qilish metodologiyasini takomillashtirish	988
Hamrayev Obid Akhatovich	
Tibbiy xizmatlarda raqamli texnologiyalarni joriy etish va uning samaradorlikka ta'siri (xorijiy tajriba).....	993
Usmonova Vasila Botirovna	
Tijorat banklarida muammoli kreditlarni boshqarish amaliyoti tahlili.....	997
Akramova Nargiza Nutfillayevna	
Using integrated marketing communications (IMC) in business management	1002
Ziyayeva M.M.	
Xorijiy mamlakatlarda tibbiyot muassasalarini moliyalashtirish masalalari va ulardan o'zbekistonda foydalanish istiqbollari.....	1006
Jaxongirov Ilindorjon Jahongirjon o'g'li	
Davlat budjetining ijtimoiy sohani rivojlantirishdagi xarajatlarini samarali boshqarish yo'llari.....	1011
Qo'ziyev Shodiyor Qilichboy o'g'li	
Mintaqada xalq hunarmandchiligida klasterlash va ekologik logistika modeli asosida savdo tizimini shakllantirish.....	1015
Norqobilova Feruza Abduhomidovna	
To'g'ri xarajatlar usuli va to'liq yutuvchi xarajatlar usuli tizimlarining afzalliklari va farqli jihatlari amaliy misolda.....	1019
Kholisa Kamoliddinovna Kuldosheva	
Investitsiyalarni innovatsiyalarga yo'naltirish bo'yicha xorij tajribasi	1024
Ayubov Ilyos Ilxomovich	



INVESTITSIYALARNI INNOVATSIYALARGA YO'NALTIRISH BO'YICHA XORIJ TAJIRIBASI

Ayubov Ilyos Ilxomovich

Samarqand Iqtisodiyot va Servis Instituti,
i.f.f.d., PhD, dotsent

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy iqtisodiy taraqqiyotning ajralmas tarkibiy qismi bo'lgan innovatsion rivojlanish va moliyaviy investitsiyalarni samarali jalb qilish masalalari tahlil qilinadi. Bugungi kunda rivojlangan davlatlarning investitsiya siyosatida innovatsiyalarga alohida e'tibor qaratilayotgani kuzatilmoqda. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi asosida investitsiyalarni ilmiy-tadqiqot ishlari, texnologik startaplar, texnoparklar va zamonaviy ishlab chiqarish klasterlariga yo'naltirish mexanizmlari o'rganilgan.

Kalit so'zlar: innovatsiya, investitsiya siyosati, startap, texnologik taraqqiyot, xorijiy tajriba, iqtisodiy o'sish, ilm-fan, davlat-xususiy sheriklik.

Abstract: This article analyzes the issues of innovative development and the effective attraction of financial investments, which are integral components of modern economic development. Nowadays, in the investment policies of developed countries, special attention is given to innovation. Based on the experience of developed countries, the mechanisms for directing investments to R&D, technological startups, technoparks, and modern production clusters have been studied.

Key words: innovation, investment policy, startup, technological progress, foreign experience, economic growth, science, public-private partnership.

Аннотация: В данной статье анализируются вопросы инновационного развития и эффективного привлечения финансовых инвестиций, которые являются неотъемлемой частью современного экономического развития. В настоящее время в инвестиционной политике каждой развитой страны особое внимание уделяется инновациям. На основе опыта развитых стран изучены механизмы направления инвестиций в НИОКР, технологические стартапы, технопарки и современные производственные кластеры.

Ключевые слова: инновации, инвестиционная политика, стартап, технологический прогресс, зарубежный опыт, экономический рост, наука, государственно-частное партнерство.

KIRISH

Zamonaviy global iqtisodiy tizimda davlatlarning uzluksiz va barqaror rivojlanish dinamikasi, avvalo, ularning innovatsion infratuzilmani shakllantirish va rivojlantirish salohiyatiga, ilmiy-texnik taraqqiyot mahsullarini real sektor amaliyotiga integratsiyalash darajasiga, shuningdek, ushbu jarayonlarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash resurslarining hajmi va samaradorligiga chambarchas bog'liqdir. Innovatsiyalar zamonaviy iqtisodiy taraqqiyotning fundamental omiliga aylangan bo'lib, ular nafaqat texnologik yangilanishni ta'minlaydi, balki iqtisodiy o'sish sur'atlarini tizimli ravishda tezlashtirish, milliy xo'jalik subyektlarining global bozor sharoitida raqobatbardoshligini oshirish, eksport imkoniyatlarini diversifikatsiyalash, mehnat resurslarini samarali band qilish hamda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda strategik drayver vazifasini bajaradi.

Innovatsion rivojlanishning tamal toshini investitsiyalar tashkil etadi. Aynan kapital qo'yilmalar orqaligina yangi avlod texnologiyalarini ishlab chiqish, ilmiy-tadqiqot faoliyatini institutsional qo'llab-quvvatlash, innovatsion



startaplar va yuqori texnologiyali korxonalarni shakllantirish, texnoparklar, innovatsion inkubatorlar hamda klaster tizimlarini barpo etish imkoniyati yuzaga keladi. Shu bois zamonaviy xalqaro amaliyotda investitsiyaviy oqimlarni nafaqat ishlab chiqarish va an'anaviy infratuzilma sohalariga, balki yuqori qo'shilgan qiymatga ega ilm-fan, texnologik innovatsiyalar va bilimga asoslangan iqtisodiyot yo'nalishlariga yo'naltirish strategik ustuvorlik sifatida e'tirof etilmoqda.

AQSh, Germaniya, Janubiy Koreya, Xitoy hamda Skandinaviya mamlakatlari innovatsion rivojlanish borasida yetakchi amaliy tajribaga ega bo'lib, ularning milliy iqtisodiy modellarida innovatsiyalarni rag'batlantirishga yo'naltirilgan investitsiyaviy siyosat konseptual o'rin tutadi. Jumladan, AQShda yuqori riskli, biroq katta texnologik va tijoriy salohiyatga ega startap subyektlari venchur kapital bozori orqali moliyaviy jihatdan faol qo'llab-quvvatlanadi. Germaniya tajribasida esa o'rta biznes (mittelstand) segmenti negizidagi texnologik innovatsiyalarni ishlab chiqarish va tijoratlashtirish uchun kompleks moliyaviy infratuzilma shakllantirilgan. Xitoyda esa davlat tomonidan markazlashtirilgan innovatsion siyosat doirasida texnologik zonalar tashkil etilib, xorijiy va mahalliy kapitalni jalb etish orqali ilmiy-texnik salohiyatni sanoatlashgan shaklda rivojlantirish mexanizmlari yo'lga qo'yilgan.

O'zbekiston ham o'z taraqqiyot strategiyasida innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishga e'tibor qaratmoqda. Bu borada "Ilm-fan va innovatsiyalarni rivojlantirish strategiyasi", "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi qonun, Prezident farmonlari asosida muhim huquqiy va institutsional sharoitlar yaratilgan. Biroq innovatsiyalarga yo'naltirilgan investitsiya mexanizmlarini chuqur o'rganish, xorijiy tajriba asosida milliy modelni takomillashtirish bugungi kundagi dolzarb vazifalardan biridir.

Shu nuqtai nazardan, ushbu maqolada xorijiy davlatlarning investitsiyalarni innovatsiyalarga yo'naltirish bo'yicha tajribasi, ularning asosiy yo'nalishlari, moliyaviy vositalari va strategik yondashuvlari tahlil qilinadi. Bundan tashqari, O'zbekistonda bu boradagi mavjud sharoitlar baholanib, amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mazkur mavzuda yetakchi xalqaro tashkilotlar, ilmiy markazlar va xorijiy olimlarning ishlari tahlil qilindi. Jumladan, OECD (Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti)ning "Innovation Policy Platform" hisobotlarida rivojlangan davlatlarda innovatsion ekotizimlarning qanday shakllanishi tushuntiriladi. Jahon banki tomonidan taqdim etilgan "Innovative Investment Strategies" to'plamlarida innovatsiyalarni moliyalashtirishda davlat va xususiy sektor o'rtasidagi o'zaro aloqalar o'rganilgan. M. Porter, J. Schumpeter kabi iqtisodchi olimlar tomonidan ishlab chiqilgan nazariyalarda innovatsiyalar iqtisodiy o'sish drayveri sifatida talqin etiladi. Shuningdek, O'zbekiston olimlari A. Saydahmedov, D. Abdurahmonov, B. Xolboevlarning ilmiy ishlarida innovatsion rivojlanish uchun mahalliy investitsion shart-sharoitlar tahlil qilingan. Bu adabiyotlar xorijiy tajriba va milliy holatni solishtirish imkonini beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda qiyosiy tahlil usuli asosiy o'rin tutdi. AQSh, Janubiy Koreya, Germaniya, Xitoy va Shvetsiya kabi davlatlarning investitsion yondashuvlari solishtirilib, ular o'rtasidagi o'xshash va farqli jihatlar aniqlandi. Shuningdek, SWOT-tahlil yordamida innovatsion loyihalarga sarmoya kiritishdagi imkoniyatlar va tahdidlar baholandi. Ilmiy maqolalar, statistik hisobotlar va davlat strategiyalari asosida chuqur kontent tahlili o'tkazildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Zamonaviy global iqtisodiy paradigmada innovatsion taraqqiyot iqtisodiy o'sishning bazaviy drayverlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Empirik tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotni innovatsion asosda modernizatsiyalashga qaratilgan ko'p bosqichli va institutsional jihatdan uyg'unlashtirilgan investitsiyaviy siyosatni joriy etgan. Bunda eng muhim metodologik yondashuv — innovatsiyani faqat texnikaviy yangilik emas, balki makro va mikro darajadagi kompleks ijtimoiy-iqtisodiy transformatsiya jarayoni sifatida qabul qila olish layoqatidir.

Xususan, AQSh tajribasida innovatsion loyihalarning moliyalashtirilishida venchur kapital bozori asosiy rolni bajaradi. Yirik va xususiy investorlar yuqori darajadagi texnologik risklarni o'z zimmasiga olgan holda, strategik istiqbolga ega loyihalarni moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlamogda. Bunday faoliyatning institutsional bazasini esa hukumat tomonidan yaratilgan qulay moliyaviy, soliq va huquqiy infratuzilma tashkil etadi. Shu jumladan, DARPA kabi agentliklar orqali ilg'or texnologiyalarni davlat buyurtmalari asosida shakllantirish va ularni bozorga integratsiyalash imkoniyati yaratilmoqda. Bu esa innovatsiyalarni fundamental tadqiqotlar darajasida emas, balki real iqtisodiy aylanishga yaqinlashtirish mexanizmini shakllantiradi.



Germaniya tajribasida innovatsiyaviy investitsiyalarning markaziy vektori ishlab chiqarish sektoriga qaratilgan bo'lib, ayniqsa "Mittelstand" deb nom olgan o'rta miqyosli korxonalar innovatsion texnologiyalarni amaliyotga joriy etishda strategik drayver sifatida maydonga chiqmoqda. Ushbu korxonalar davlat tomonidan uzoq muddatli imtiyozli kreditlar, soliq preferensiyalari hamda ilmiy-texnik hamkorlik dasturlari orqali tizimli tarzda rag'batlantiriladi. Germaniyaning innovatsion ekotizimini o'ziga xos qiluvchi omillardan biri — oliy ta'lim muassasalari, ilmiy-tadqiqot institutlari va real sektor o'rtasida shakllangan institutsional integratsiyaning yuqori darajasidir. Bu esa "uchburchak model" tamoyiliga asoslangan innovatsion sinergiyani yuzaga keltiradi.

Janubiy Koreya esa davlat tomonidan markazlashtirilgan va faol boshqariladigan innovatsion rivojlanish modelini amaliyotga joriy etgan mamlakat sifatida ajralib turadi. Rivojlanishning dastlabki bosqichlarida hukumat yirik milliy korporatsiyalar — xususan, Samsung va Hyundai bilan hamkorlikda texnologik bazani shakllantirishga ustuvor e'tibor qaratgan. Hozirgi bosqichda esa innovatsiyalarni moliyalashtirishda asosiy tashabbus davlat tomonidan amalga oshirilmoqda. Biroq ushbu investitsiyalar yuqori texnologik, eksportbop va raqobatbardosh tarmoqlarni rivojlantirishga, ilmiy kadrlar salohiyatini oshirishga hamda texnoparklar faoliyatini jadallashtirishga yo'naltirilmoqda.

Xitoyda innovatsion yo'nalishga qaratilgan investitsiya siyosati markazlashtirilgan rejalashtirish tamoyiliga asoslanadi. "Made in China 2025" strategiyasi doirasida yuqori texnologiyali sanoat tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida davlat tomonidan ko'lamlı sarmoyaviy resurslar yo'naltirilmoqda. Bu jarayonda Xitoy hukumati xorijiy texnologiyalarni transfer qilish bilan birga, milliy innovatsion ekotizimni shakllantirishni ham ustuvor vazifa sifatida belgilagan. Xususan, startup subyektlari innovatsion inkubatorlar orqali moliyaviy va institutsional jihatdan qo'llab-quvvatlanadi. Shu bilan birga, erkin iqtisodiy hududlar shaklida tashkil etilgan innovatsion zonalar — o'ziga xos soliq preferensiyalari, bojxona yengilliklari va alohida normativ-huquqiy tartibga ega bo'lgan maxsus makonlar sifatida — innovatsion faoliyat uchun qulay sharoit yaratmoqda.

Skandinaviya mamlakatlari — xususan, Shvetsiya, Daniya va Finlyandiya — innovatsiyaga yo'naltirilgan investitsiyaviy yondashuvda ijtimoiy innovatsiyalar va ekologik barqarorlikni ta'minlovchi "yashil" texnologiyalarni ustuvor deb biladi. Bu mintaqada grant asosidagi ochiq moliyalashtirish tizimi keng rivojlangan bo'lib, ilmiy loyihalar davlat tomonidan 60–70 foizgacha moliyalashtiriladi. Innovatsion faoliyatning asosiy institutsional bazasini esa ta'lim muassasalari, universitetlar va ilmiy-tadqiqot institutlari tashkil etadi, ular orqali texnologik bilimlarning real sektor amaliyotiga uzviy integratsiyasi ta'minlanadi.

Jahon tajribasida quyidagi modellarni tavsiya etish mumkin:

- Davlat-xususiy sheriklik modeli;
- Venchur moliyalashtirish tizimi;
- Texnoparklar va klasterlar;
- Soliq yengilliklari va grantlar;
- Ilmiy muassasalar bilan integratsiya.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishga qaratilgan institutsional va me'yoriy-huquqiy asoslar bosqichma-bosqich takomillashtirilmoqda. Biroq zamonaviy global tendensiyalar va ilg'or xorijiy amaliyot tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, mazkur yo'nalishda kompleks yondashuvni kuchaytirish zarur. Xususan, yuqori risk va yuqori daromadlilik xususiyatiga ega innovatsion loyihalarni moliyalashtirishga xizmat qiluvchi venchur kapital tizimini shakllantirish, texnoparklar va innovatsion klasterlarning institutsional salohiyatini oshirish, oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan xususiy sektor o'rtasida barqaror va natijador innovatsion hamkorlikni yo'lga qo'yish, shuningdek, innovatsion faoliyat subyektlari uchun institutsional ishonch va moliyaviy xavfsizlik kafolatlarini yaratish muhim strategik vazifalar sirasiga kiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bugungi globallashuv sharoitida innovatsiyalar nafaqat texnik yoki texnologik taraqqiyotning ajralmas komponenti, balki milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi, iqtisodiy xavfsizlikning ta'minlanishi va strategik taraqqiyotning negizi sifatida qaralmoqda. Empirik tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, innovatsion faoliyatni rag'batlantirishga yo'naltirilgan investitsiya siyosati dunyoning yetakchi davlatlarida yuqori strategik maqomga ega bo'lib, u yerda ushbu jarayonga tizimli, ko'p bosqichli va chuqur o'ylangan yondashuvlar shakllangan.

Xususan, AQSh, Germaniya, Janubiy Koreya, Xitoy hamda Skandinaviya mamlakatlari tajribasi shuni tasdiqlaydiki, innovatsiyalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash faqat davlat byudjeti yoki bank kreditlari doirasidagina amalga oshirilmaydi. Aksincha, bu borada davlat-xususiy sheriklik asosidagi moliyalashtirish modellari, venchur kapital investitsiyalari, ochiq grant dasturlari, soliq imtiyozlari va rag'batlantirishlari, shuningdek, texnoparklar, startaplari va ilmiy-innovatsion markazlar o'rtasidagi uzviy institutsional aloqalar muhim rol o'ynaydi. Bunday yondashuvlar innovatsion ekotizimni shakllantirib, iqtisodiy tuzilmalarning yuqori texnologiyalar asosida transformatsiyalashuvi uchun shart-sharoit yaratadi.



Shu bilan birga, xalqaro tajriba tahlili shuni anglatadiki, har bir mamlakat o'zining tarixiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy xususiyatlaridan kelib chiqib, innovatsion siyosatni differensial tarzda tashkil etgan. Jumladan, Germaniyada innovatsion rivojlanishning asosiy drayveri sifatida o'rta biznes — "Mittelstand" modeli namoyon bo'lsa, AQShda ventur kapital bozori va mustaqil investorlar faoliyati yetakchilik qiladi. Xitoyda esa innovatsion strategiya markazlashgan rejalashtirish va maxsus iqtisodiy zonalar orqali amalga oshiriladi. Skandinaviya mamlakatlarida esa yashil texnologiyalar va ijtimoiy innovatsiyalar ustuvorlik kasb etgan bo'lib, ular barqaror rivojlanish tamoyillariga asoslanadi. Ushbu holatlar innovatsion modelning universallikdan ko'ra moslashuvchanlik, mintaqaviy xususiyatlarga integratsiyalashuv va funksional samaradorlikka tayanganini ko'rsatadi.

Mazkur tajribalar O'zbekiston uchun ham amaliy jihatdan muhim ahamiyatga ega. So'nggi yillarda mamlakatda innovatsion rivojlanishning huquqiy, institutsional va moliyaviy asoslari bosqichma-bosqich shakllantirilmoqda. Shu bilan birga, xorijiy tajriba asosida quyidagi ustuvor yo'nalishlar bo'yicha faoliyatni chuqurlashtirish maqsadga muvofiq: ventur kapital infratuzilmasini yaratish, texnoparklar va innovatsion klasterlar faoliyatini institutsional darajada faollashtirish, oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan biznes sektori o'rtasida integratsiyalashgan innovatsion hamkorlikni yo'lga qo'yish, shuningdek, innovatsion muhit ishtirokchilari uchun moliyaviy barqarorlik va institutsional ishonch kafolatlarini ta'minlash.

O'zbekiston innovatsion taraqqiyot yo'lida sifat jihatidan yangi pog'onaga ko'tarilishi uchun quyidagi ustuvor yo'nalishlarda tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur: — Ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan real iqtisodiyot sektori o'rtasidagi uzviy aloqani kuchaytirish, ayniqsa, ilm-fan natijalarini amaliyotga joriy etish bo'yicha mexanizmlarni takomillashtirish orqali innovatsion mahsuldorlikni oshirish;

— Startaplar va texnologik loyihalar, grant tizimi va soliq imtiyozlarini institutsional darajada kengaytirish, bu esa innovatsion tashabbuslarning ko'payishi va o'zini oqlashiga xizmat qiladi;

— Hududiy innovatsion markazlar, xususan, texnoparklar va innovatsion klasterlar infratuzilmasini rivojlantirish, ularni intellektual, texnologik va moliyaviy resurslar bilan ta'minlash orqali mintaqaviy innovatsion salohiyatni faollashtirish;

— Innovatsion faoliyatni tartibga soluvchi yengil, moslashuvchan va aniq normativ-huquqiy bazani yaratish, bu esa innovatorlar va investorlar uchun huquqiy aniqlik va ishonch muhitini ta'minlaydi;

— Ilg'or xorijiy tajribalarni chuqur tahlil qilish hamda ularni O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy sharoitlariga moslashtirilgan holda amaliyotga joriy etish, bu esa innovatsion siyosatning moslashuvchanligini va natijadorligini oshiradi.

Ushbu yo'nalishlardagi izchil islohotlar natijasida innovatsion sarmoyalar mamlakat iqtisodiyotining tarkibiy jihatdan diversifikatsiyalashuvi, yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ulushining ortishi, raqobatbardosh zamonaviy ish o'rinlarining yaratilishi va xalqaro bozorlarda mahalliy mahsulotlarning o'rnini mustahkamlashga xizmat qilishi mumkin. Natijada, innovatsiyalar nafaqat iqtisodiy o'sish omili, balki "Yangi O'zbekiston" taraqqiyot strategiyasida belgilangan uzoq muddatli maqsadlar sari barqaror harakatlanishning asosiy vositasiga aylanadi.

Shu boisdan, innovatsion yo'nalishlarga yo'naltirilgan investitsiyalarni faqat iqtisodiy zarurat emas, balki milliy taraqqiyotning ustuvor vektori, texnologik suverenitet va intellektual kapitalni shakllantirishning asosiy tayanchi sifatida e'tirof etish lozim. Kelgusida mazkur yo'nalishdagi puxta ishlab chiqilgan strategik chora-tadbirlar O'zbekistonning Markaziy Osiyo mintaqasidagi yetakchi innovatsion markazlardan biriga aylanishiga asos yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti PF-6079-son Farmoni, 2020-yil. <https://lex.uz/ru/docs/-5030957?ONDATE2=12.08.2021&action=compare>
2. World Bank (2021). Innovative Investment Strategies. Washington D.C.
3. Porter, M. (1990). The Competitive Advantage of Nations. Macmillan.
4. Schumpeter, J.A. (1942). Capitalism, Socialism and Democracy. Harper & Brothers.
5. OECD (2022). Innovation Policy Platform. URL: <https://www.oecd.org/innovation>
6. "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonun, 2019-yil. URL: <https://lex.uz>
7. Innovatsion rivojlanish vazirligi axborot byulleteni, 2023-yil.
8. Abdurahmonov D. Innovatsion iqtisodiyot asoslari. Toshkent, 2021-yil.
9. Saydahmedov A. Investitsiya faoliyati nazariyasi va amaliyoti. Toshkent, 2020-yil.
10. Саидов А.Ф. Организационно-экономические механизмы управления туризмом Республики Узбекистан: Дис. ... док. экон. наук. — Ташкент, 1994 — 252 с.
11. Safarov B.Sh. Milliy turistik xizmatlar bozorini innovatsion rivojlantirishning metodologik-uslubiy asoslarini takomillashtirish: Iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. — S.: SamISI, 2016 — 254 b.
12. UNCTAD (2023). Technology and Investment Report. Geneva.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>